

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SHAXSNING IQTISODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Zokirov Hayotbek

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy savodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni hamda shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini shakllantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy bilim va koʻnikmalarni rivojlantirish orqali aholining moliyaviy barqarorligini taʼminlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda tejamkorlik madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilgan. Maqolada taʼlim jarayonida iqtisodiy savodxonlikni oshirishning pedagogik ahamiyati ochib berilib, iqtisodiy tushunchalarni oʻqitishda integrativ yondashuvlardan foydalanish samaradorligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: Iqtisod, iqtisodiy savodxonlik, bozor iqtisodiyoti, daromad, xarajat, byudjet, tejamkorlik.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятия экономической грамотности, её роль в развитии современного общества, а также значение в формировании социально-экономической активности личности. Особое внимание уделяется вопросам обеспечения финансовой устойчивости населения через развитие экономических знаний и навыков, рационального использования ресурсов и формирования культуры бережливости. В статье обоснована педагогическая значимость повышения экономической грамотности в образовательном процессе, а также эффективность применения интегративных подходов при обучении экономическим понятиям.

Ключевые слова: Экономика, экономическая грамотность, рыночная экономика, доход, расходы, бюджет, бережливость.

Annotation: This article examines the essence of the concept of economic literacy, its role in the development of modern society, and its importance in shaping an individual's socio-economic activity. Particular attention is paid to ensuring financial stability of the population through the development of economic knowledge and skills, rational use of resources, and the formation of a culture of frugality. The article substantiates the pedagogical significance of enhancing economic literacy in the educational process and highlights the effectiveness of using integrative approaches in teaching economic concepts.

Keywords: Economics, economic literacy, market economy, income, expenses, budget, frugality.

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalar har bir inson uchun muhim hayotiy zaruratga aylanmoqda. Iqtisodiy savodxonlik nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki shaxsning mustaqil fikrlashi, mas‘uliyatli qaror qabul qilishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy savodxonlik – bu shaxsning daromad va xarajatlarni rejalashtirish, byudjet tuzish, tejash, investitsiya qilish va moliyaviy risklarni baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar majmuasi. Bunday savodxonlikka ega bo‘lgan inson o‘z moliyaviy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay oladi va oqilona qarorlar qabul qiladi. Iqtisodiy savodxonlik zamonaviy jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etishining muhim sharti hisoblanadi. Iqtisodiy savodxonlikka ega bo‘lgan shaxs daromad va xarajatlar muvozanatini saqlash, byudjetni rejalashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy risklarni to‘g‘ri baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa aholining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyat a‘zolaridan iqtisodiy jarayonlarni anglash, mustaqil va mas‘uliyatli qarorlar qabul qilish, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish talab etiladi. Shu jihatdan shaxsning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy tafakkur shaxsning iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish, ularning sabab-oqibat aloqalarini tushunish va real hayotiy vaziyatlarga mos qarorlar chiqarish qobiliyatini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tafakkur daromad va xarajatlarni muvozanatlash, byudjetni rejalashtirish, ehtiyoj va imkoniyatlarni solishtirish, shuningdek, risklarni baholash orqali namoyon bo‘ladi. Bunday tafakkurga ega shaxs o‘z iqtisodiy faoliyatini ongli ravishda boshqaradi, moliyaviy barqarorlikka erishishga intiladi va jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etadi. Natijada shaxsiy manfaatlar bilan jamiyat manfaatlarini o‘rtasida muvozanat vujudga keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy savodxonlikning ahamiyati yanada ortadi. Chunki bozor munosabatlari shaxsdan mustaqil qaror qabul qilish, raqobat muhitida o‘z manfaatlarini himoya qila olish va iqtisodiy imkoniyatlardan oqilona foydalanishni talab etadi. Daromad manbalarini aniqlash, xarajatlarni rejalashtirish, tejash va investitsiya qilish kabi ko‘nikmalar iqtisodiy savodxonlikning asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalar shaxsning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash bilan birga, ijtimoiy farovonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, iqtisodiy savodxonlik shaxsda tejamkorlik madaniyatini shakllantiradi. Resurslardan oqilona foydalanish, ehtiyoj va imkoniyatlarni solishtirish, ortiqcha xarajatlardan qochish kabi sifatlar shaxsning mas‘uliyatli iqtisodiy xulq-atvorini belgilaydi. Natijada jamiyatda iqtisodiy intizom va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy savodxonlik jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biridir. Har bir shaxsning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uning shaxsiy farovonligi bilan bir qatorda jamiyat iqtisodiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'lim jarayonida iqtisodiy savodxonlikni oshirish, uni integrativ yondashuv asosida shakllantirish va hayotiy tajribalar bilan boyitish dolzarb vazifa hisoblanadi. Iqtisodiy savodli jamiyat esa barqaror rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va kelajak avlod farovonligining mustahkam poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida” nomli ma'ruzasi. –Toshkent, 2023.
2. Xolboyev, R. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik shartsharoitlari. Toshkent: Pedagogika nashriyoti. (2021)
3. Bay, C., Catusus, B. ve Johed, G. (2014). Situating Financial Literacy. Critical Perspective On Accounting. 25, 36-45.
4. Remund, D. L. (2010). Financial Literacy Explicated: The Case For A Clearer Definition In An Increasingly Complex Economy. The Journal Of Consumer Affairs. 44(2),276-295.
5. OECD.(2015). Improving Financial Literacy Analysis Of Issues And Policies Organisation.